

BASTAKORLIK VA O'ZBEKISTON BASTAKORLARI

M.A.Mirzaeva,

A.Qodiriy nomidagi Jizzax
davlat pedagogika instituti
Musiqiy ta'lif kafedrasi
o'qituvchisi

Lobar Maxmudova,

1- bosqich talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada bastakorlik, O'zbekistonda bastakorlik ijodi bilan shug'ullangan ko'p asrlar an'ana davomchilari xonanda va sozandalar to'g'risida ma'lumotlar haqida yoritilgan. Tarixda musiqa ijrochiligi madaniyatining cholg'ular orqali bastalagan kuy-qo'shiqlarini o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham yangi she'rлarini ashula yo'liga tushira olgan san'atkorlar ya'ni bastakorlar bizga ma'lum.

Kalit so'zlar: bastakor, hofiz, sozanda.

Bastakorlik O'rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud musiqiy ijod san'atidir. Bastakorlik san'ati o'zbek xalqining merosida juda katta va muhim o'rinni tutadi. Shuning uchun ham bastakorlik muammolari musiqashunos va sharqshunos olimlarimizning diqqat e'tiborini ko'pdan beri o'ziga jalb qiladi, bu masala musiqa san'atimizda juda katta tarixiy-ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bastakor forscha ("basta"-bog'lash, "kor" – ishslash, ishlovchi ma'nolarida) so'z bo'lib kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bog'lovchi degan ma'noni anglatadi. Bastakor o'tmishda turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi, original kuy va ashulalar yaratuvchidir ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzusida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo'llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar kiritgan. Ashula yo'llariga yangi she'rлarni ustalik bilan bog'lab, tushira bilgan san'atkorlar ham bastakor nomiga mansub bo'lgan.

O‘rtalik asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shunday ediki, cholg‘u ijrochilar nafaqat bir nechta turdag‘i musiqa asboblarini chala olgan, balki o‘zlari ham musiqa bastalaganlar. XV- asrda yetishib chiqqan shoirlar, san’at ahliga A.Navoiy va A.Jomiy homiylik qilgan hamda ularni tarbiyalagan. Navoiyning “Majolis-un-nafois” asarida musiqaning nazariy va amaliy jihatlaridan xabardor shoirlar maqtob tilga olingan. Chunki aruz san’atini egallashda, shoirdagi estetik hisni tarbiyalashda musiqaning ro‘liga katta ahamiyat berilardi. Bastakor musiqaning nazariy-amaliy tomonlarini bilsa-yu lekin aruz ilmidan bexabar bo‘lsa, ashulaga she’r bog‘lashda xatolikka yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun ham bu davrda ulug‘ shoirning topshirig‘i bilan aruz ilmi va musiqa nazariyasiga doir risolalar yaratiladi. Bu davrda Xo‘ja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Alishoh, Muhammad Jomiy, Binoiy, Pahlavon Muhammad Ustod Qulmuhammad Udiy, Ustod Shodiy va boshqa yuzlab musiqa nazariyachilari va bastakorlar yetishib chiqdilar. Bastakorlik san’ati XVI-XVIII-asrlarda yashab ijod qilgan musiqachi bastakorlar-Najmuddin Kavkabiylari va Darvesh Ali Changiyning musiqa risolalarida ham ma’lum darajada yoritib berilgan. XIX-asr oxiri XX-asrda “Shashmaqom”ning mashhur bilimdonlari Ota Jalol Nosirov (hofiz) va Ota G‘iyos Abdug‘ani (sozanda) hamda bu ustozlar an’analarini davom ettirib kelgan Domla Halim Ibodov, mohir ashulachilar Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov va Shorahim Shoumarov, ularning shogirdlari Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Usta Olim Komilov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzaev kabi ustoz san’atkori larni ko‘rsatish mumkin. ularning har biri o‘z musiqiy ijod yo‘lini yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning aniq uslubi, ladi ohang tiniqligiga katta e’tibor berishgan, musiqani nihoyatda serohang va jiloli bo‘lishi uchun xilma-xil murakkab usullarga murojaat qilishgan. ularning asarlaridagi o‘ziga xoslik, milliy ruh, falsafiy kayfiyat yaratilgan san’at na’munalariga go‘zallik va umrboqiylik bag‘ishlaydi. Bu ustoz bastakorlar o‘z ijodiy faoliyatlari bilan Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy asos solgan o‘zbek bastakorlik san’atining nodir na’munalarini targ‘ib qildilar va davom ettirdilar. Ular O‘zbekistonning hayotida badiiy havaskorlik jamoalarini kengaytirishda,

milliy ijrochili jamoalarini tashkil qilishda faol qatnashdilar. Ulardan keyin bu ishlarni O‘zbekiston xalq hofizi Fattoqxon Mamadaliev, sozanda va bastakor Orif Xotamov, G‘anijon Toshmatov, G‘ulomjon Xoqiqulov, Faxriddin Sodiqov, Matniyoz Yusupov, Tolibjon Sodiqov, Muxtorjon Murtozoev, Rahmatjon Tursunovlar davom ettirishgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. F.Karomatov O‘zbek cholg‘u ijrochiligi “Adabiyot va san’at nashriyoti” Toshkent 1972.
2. T.E Solomonova musiqa san’ati “Adabiyot va san’at nashriyoti” Toshkent 1982.
3. N.Yo‘ldosheva N.Raxmatova “O‘zbek musiqa adabiyoti” Toshkent 2010.